



MAMLAKATIMIZDA HUKM SURAYOTGAN TINCHLIK VA BARQARORLIK — BIZNING ENG KATTA BOYLIGIMIZDIR

25-mart kuni barcha hududlarda ehson dasturxonlari yozilib, iftorlik marosimi o'tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida o'tgan iftorlikda ishtirok etdi.



Tadbir avvalida davlatimiz rahbari xalqimizni va jamiki musulmon ummatini muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor tabriklaydi.

— Ushbu sharofatli oyda go'zal diyorimizda mana shunday fayzli iftorlik marosimini el-yurtimiz bilan birgalikda o'tkazish nasib etgani uchun mehribon

va qudratli Alloh taolaga behisob shukronalar aytamiz, — dedi Prezident.

Mamlakatimizda "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya hamma ishda asosiy dasturga aylanmoqda. Fuqarolarning huquqlari, vijdon erkinligi ta'minlanayotgani Ramazon oyida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muqaddas dinimiz buyurgan xayriy amallar

— ahillik va hamjihatlik, mehr-saxovat, sabr-u qanoat, axloq-odob, ilm-u ma'rifat fazilatlarini jamiyatimizda tobora mustahkam bo'lib bormoqda.

Islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur o'rganish, buyuk tariximiz va madaniyatimiz durdonalarini, ulug' allomalarimizning boy merosini to'plash va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, shu maqsadda poytaxtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilmoqda. Bu ulkan ilmiy-ma'naviy loyiha necha ming yillik taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassam etib, islom sivilizatsiyasi yurtimizda aynan ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'rifat asosida rivojlanganini tasdiqlaydi, yoshlarimizni buyuk kashfiyotlarga ruhlantiradi.

Samarqandda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy majmuasi qurilishi ham jadal davom etmoqda. Buyuk ajdodimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzey va ilmiy dargohlar bilan birga, 10 ming kishilik masjid bunyod etilmoqda. Bu ikki muhtasham obida joriy yilda ochilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimizning 14-martdagi qaroriga muvofiq, bu yil Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlanadi. U zotning Samarqanddagi muborak qadamjosi yanada obod qilinadi, boy ilmiy merosi va moturidiylik ta'limoti xorijiy olimlar bilan hamkorlikda o'rganiladi.

Davomi 2-beta

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING "KO'KSAROY" QARORGOHIDA O'TKAZILGAN IFTORLIK MAROSIMIDAGI NUTQI

Bismillahir rahmonir rahim. Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar, nuroniy otaxon va onaxonlar!

Qadri mehmonlar! Siz, azizlarni, butun xalqimizni, uzoq-yaqindagi jamiki musulmon ummatini davom etayotgan muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor samimiy tabriklayman. Barchangizga tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik va farovonlik yor bo'lishini tilayman.

Ushbu sharofatli oyda go'zal diyorimizda mana shunday fayzli iftorlik marosimini el-yurtimiz bilan birgalikda o'tkazish nasib etgani uchun mehribon va qudratli Alloh taolaga behisob shukronalar aytamiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi davramizda ishtirok etayotgan hurmatli mehmonlarimizga — xorijiy davlatlarning elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillariga,

diniy kassiyalar rahbarlariga Vatanimiz va xalqimizga ko'rsatayotgan yuksak ehtirom va e'tiborlari uchun chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Aziz do'stlar! Sizlarga ma'lumki, so'nggi yillarda milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Bu borada "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya bizning faoliyat dasturimizga aylanmoqda. Shu asosda millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir vatandoshimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash ijtimoiy hayotimizda yetakchi o'ringa chiqmoqda.

Fuqarolarimizning vijdon erkinligi sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlari to'liq

ta'minlanayotgani bu yil Ramazon oyida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Muqaddas dinimiz buyurgan xayriy amallar — ahillik va hamjihatlik, mehr-saxovat, sabr-u qanoat, axloq-odob, ilm-u ma'rifat fazilatlarini jamiyatimizda tobora mustahkam bo'lib bormoqda. Xususan, islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur o'rganish, buyuk tariximiz va madaniyatimiz durdonalarini, ulug' allomalarimizning boy merosini to'plash va keng targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ana shu ezgu maqsad yo'lida Toshkent shahrida bunyod etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi O'zbekistonda ilk bor amalga oshirilayotgan ulkan ilmiy-ma'naviy loyiha sifatida mamlakatimiz va xalqaro jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Ushbu markaz necha ming yillik taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassam etib, islom sivilizatsiyasi yurtimizda aynan ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'rifat asosida rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu maskan biz uchun nafaqat o'tmish yodgorligi sifatida, balki xalqimiz, yoshlarimizni kelajak sari chorlashi, buyuk kashfiyotlarga ruhlantirishi bilan ayniqsa, e'tibordir.

Xabaringiz bor, ulug' vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning Samarqandda barpo qilinayotgan muazzam majmuasi qurilishi ham jadal davom ettirilmoqda. Bu yerda buyuk ajdodimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzey va ilmiy dargohlar bilan birga, 10 ming kishilik masjid ham bunyod etilmoqda.

Nasib etsa, bu yil ana shu ikki muhtasham obidani — Islom sivilizatsiyasi markazi

va Imom Buxoriy majmuasining ochilish marosimini barchamiz birgalikda tantanali ravishda o'tkazamiz.

Xalqimizning islom dini va falsafasiga qo'shgan bebaho hissasini yanada teran o'rganish maqsadida yaqinda yana bir muhim qaror qabul qildik.

Bu yil mutafakkir ajdodimiz, kalam ilmining buyuk peshvolaridan biri bo'lmish Imom Moturidiy hazratlari tavalludining 1155 yilligini keng nishonlaymiz. Jumladan, ul zotning Samarqanddagi muborak qadamjolari yanada obod qilinadi.

Eng muhimi, bu ishlarimiz Imom Moturidiy merosi va moturidiylik ta'limotini yurtimiz va xorijiy olimlar ulamolar bilan hamkorlikda ilmiy asosda o'rganishda yangi va katta qadam bo'ladi.

Hurmatli do'stlar!

Ko'p millatli jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, turli millat va din vakillari o'rtasida do'stlik va birdamlikni kuchaytirish vazifasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Shu maqsadda joriy yilning sentabr oyida Toshkent va Samarqand shaharlarida nufuzli xalqaro anjuman o'tkazamiz. "Deklaratsiyalar muloqoti forumi" deb nomlangan bu yirik tadbir 2022-yili Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida bo'lib o'tgan anjumaning mantiqiy davomi bo'lib, turli diniy e'tiqod vakillari o'rtasida o'ziga xos ma'rifiy muloqot maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda yana ta'kidlab aytmoqchiman: mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik — bizning eng katta boyligimizdir.

Davomi 2-beta

BUNYODKORLIK, YARATUVCHANLIK RUHI VA SHIJOATI

BARHAMIZNI O'ZGARISHLAR SHUKUHI BILAN HARAKAT QILISHGA DA'VAT ETMOQDA

Xorijda ishlayotgan qarindoshlardan biri yaqinda yurtimizga qaytdi. Uni yo'qlab qo'ng'iroq qilsam, tomorqada ishlayotgan ekan. Ahvollarigacha, qishloqdagi yangiliklar haqida so'radim. "Hamma sog'-salomat yuribdi, qishloqdoshlar bahorgi ekin-tikin ishlari bilan band. O'ylab qararasam, qariyb 2 yil deganda migratsiyadan qaytibman, yaqinlarimni juda sog'indim. Hammasini bitta-bitta yo'qlay desam, hafta-oy o'tib ketadi. Shularni o'ylab o'tgan kuni qarindoshlarni chaqirib, iftorlik dasturxonini yozdim. Ko'pdan beri ko'rmagan jigarlarim bilan diydorlashib, dilim yayradi", deydi u.

Suhbat asnosida Yangi Toshkentda qurilish ishlari boshlangani haqida eshitganini aytib, shu yangilikka qiziqdi. Bu haqda mamlakatimizdagi rasmiy manbalarda xabarlar tarqatilgan, ularni topib qarindoshlarning ijtimoiy tarmoqdagi guruhiga jo'natib qo'yishimni aytib xayrlashdim. So'ng darhol internetdan o'sha xabarlarini topib yubordim.

Oradan ikki kun o'tib, qarindoshim yana qo'ng'iroq qildi. Xabarda ko'rsatilgan Call-markaz raqamiga bog'lana olmayotganini

aytdi. Ijtimoiy tarmoqlarga qararasam, bu holatga mas'ul vazirlik allaqachon munosabat bildirib, Call-markazdan tashqari telegram bot ham ishga tushirilganini ma'lum qilgan ekan. Bu ma'lumotlarni ham yetkazdim. U telegram bot orqali qiyinmay bog'lanib ro'yxatdan o'tgani, yurtimizda shunday munosib ish joylari yaratilayotganidan mamnun ekanini aytib, minnatdorlik bildirdi.

Davomi 3-beta

TADBIRKOR FAQAT O'ZINI O'YLAMASLIGI KERAK

Prezidentimiz Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Navoiy shahrida qandolat va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkor Shahnoza Karimova 50 nafar ehtiyojmand xotin-qizni o'qitib, ishga olgan. Shulardan 10 nafariga uy-joy sotib olish uchun boshlang'ich to'lovni to'lab bergan.

Eng muhimi, bunday saxovatpesha tadbirkor ayollar barcha hududlarimizda ko'plab topiladi. Ular "Men — bunyodkor ayolman" degan loyihani ilgari surib, mahallalarda minglab ayollarni kasb-hunarga o'qitib, daromadli qilish tashabbusini bildirgani, to'g'risi, meni juda ruhlantirdi.

Men o'ziga katta ijtimoiy mas'uliyat olgan mana shunday ishbilanmon xotin-qizlarni "Yangi O'zbekistonning bunyodkor ayollari" deb bilan va ularga chuqur minnatdorlik izhor etaman. Ularga qanday qo'shimcha sharoit va yengilliklar kerak bo'lsa, yaratib berishga tayyorman", deya ta'kidlab o'tdi.

Davomi 4-beta

MAMLAKATIMIZDA HUKM SURAYOTGAN TINCHLIK VA BARQARORLIK — BIZNING ENG KATTA BOYLIGIMIZDIR

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizdagi turli millat va din vakillari o'rtasida ahillikni kuchaytirish maqsadida shu yil sentabrda yana bir tadbir — Toshkent va Samarqand shaharlarida “Deklaratsiyalar muloqoti forumi” o'tkaziladi. Bu xalqaro anjuman turli diniy e'tiqod vakillari o'rtasida o'ziga xos ma'rifiy muloqot maydoni bo'ladi.

Konstitutsiyamizga muvofiq, O'zbekiston ijtimoiy davlat maqomiga ega bo'lib, xalqchil va insonparvar siyosat yuritilmoqda. Xususan, o'tgan yilning o'zida ko'makka muhtoj insonlarga 16 trillion so'mlik moddiy yordam va nafaqalar berilgan. Kam ta'minlangan oilalarga mansub 51 ming nafar bola bog'chaga joylashtirilgan, ularning 176 ming nafar a'zosi tibbiy ko'mak ko'rsatilib, 182 ming nafari ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olingan.

“Saxovat va ko'mak” jamg'armasi orqali 94 mingga yaqin kam ta'minlangan oilalarga davolanish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar bilan bog'liq 130 milliard so'mlik xarajatlar qoplab berilgan.

“Ayollar haftasi” doirasida 3,5 million nafar xotin-qizga 5 trillion 700 milliard so'mlik yordam ajratilgan. “Yoshlar haftasi” joriy etilganidan buyon 1 million 300 ming nafar ehtiyojmandga 1 trillion 700 milliard so'mlik ijtimoiy yordam ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, yurtimiz hojilarining tashabbusi bilan kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand oilalarga 6 milliard 300 million so'm miqdorida moddiy yordamlar ko'rsatilgan.

Yurtini obod qilish, ko'chat ekib, bog' yaratish ham savobli ish. “Yashil makon” umummilliy loyihasi aynan shu maqsadga qaratilgan. Hozirgi bahor mavsumining o'zida diniy soha xodimlari tomonidan 10 ming tupdan ziyod daraxt, 32 ming tupga yaqin gul ekildi, masjid va ziyoratgohlar atrofi obod qilindi.

“Atrof-muhitni asrash va yashil” iqtisodiyot yili”ga oid davlat dasturi doirasida tabiatparvarlik ko'lami yanada kengaymoqda. Yaqinda Xiva shahrida o'tkazilgan Konfessiyalararo kengash majlisida yurtimizdagi diniy konfessiyalar vakillari mazkur davlat dasturida faol ishtirok etish bo'yicha murojaatoma qabul qildi.

Ushbu iftorlik marosimida ham xorijiy davlatlar elchilari, xalqaro tashkilotlar hamda diniy konfessiyalar vakillari jamlangani yurtimizdagi bag'rikenglik va totuvlikning yana bir ifodasi bo'ldi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida dunyodagi vaziyatga ham to'xtalib o'tdi. Aksariyat ziddiyat va mojarolar aynan islom dunyosida sodir bo'layotgani afsus bilan qayd etildi.

Notinchlik o'choqlari istalgan paytda kengayib ketishi mumkinligi, musulmon mamlakatlarida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun birdamlik va islom ummami hamjihatligini yanada mustahkamlash har qachongidan ham dolzarb ekanini ta'kidlandi.

Buning uchun, birinchi navbatda, yoshlarni yot g'oyalari ta'siridan saqlash, ilm-ma'rifatga yo'naltirish e'tibor markazida turishi kerak.

Shu haqda gapirar ekan, Shavkat Mirziyoyev Bahouddin Naqshbandning “Qo'ling mehnatda, diling Allohda bo'lsin”, degan o'g'itini yodga oldi. Yoshlarimizni mana shunday ruhda tarbiyalash, ularni mehnat va kasbga o'rgatish juda muhim ekanini ta'kidlandi.

Ayni kunlarda “Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi” shiori ostida yurtimizdagi 9 ming 500 ga yaqin mahallada kam ta'minlangan oilalarda iftorlik dasturxonlari yoziyib, ularning holidan xabar olindi. Bunday xayriyalar inson qadrini ulug'lash, pok maqsadli barcha yurtdoshlarimizni yanada birlashtirishga xizmat qiladi.

— Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, “Yaxshilarning ishi — yaxshilik qilishdir”. Chindan ham, bu hayot aynan ezigulik va yaxshilik tufayli doimo yorug' va bardavomdir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Niyatlar ijodat bo'ladigan muborak Ramazon oyida, Qadr kechasi arafasida turib, ezgu tilaklar aytiladi.

Qur'oni karimdan tilovat qilindi. Alloh taolodan butun dunyoda tinchlik, yurtimizda farovonlik, mehr-oqibat barqaror bo'lishini so'rab, duolar o'qildi.

Yurtimizning barcha hududlarida o'tgan iftorlik tadbirlarida nuroniylar, ziyolilar, turli din va konfessiyalar vakillari, nogironligi bor va ehtiyojmand kishilar, jami 60 mingga yaqin ishtirokchi qatnashdi.

O'ZA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “KO'KSAROV” QARORGOHIDA O'TKAZILGAN IFTORLIK MAROSIMIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Ana shu beqiyos boylikni ko'z qorachig'idek asrash, yurtimizdagi do'stlik, tenglik, bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni bundan buyon ham qat'iy davom ettiramiz. Buning uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'la safarbar etamiz. Bu masala hozirgi murakkab davrda biz olib borayotgan erkinlik va ochiqlik siyosati uchun ayniqsa o'ta muhimdir.

Muhtaram yurtdoshlar! Yangi O'zbekiston yangicha ustuvor tamoyillarga, jumladan, Konstitutsiyamizda aniq belgilab qo'yilgan ijtimoiy davlat maqomiga ega bo'lib, xalqchil va insonparvar siyosat olib bormoqda.

Shu borada birgina misol keltirishga ijozat bergaysiz. O'tgan yilning o'zida ko'makka muhtoj insonlarga 16 trillion so'mlik moddiy yordam va nafaqalar berildi. Kam ta'minlangan oilalarga mansub 51 ming nafar bola bog'chaga joylashtirildi, ularning 176 ming nafar a'zosi tibbiy ko'mak ko'rsatildi, 182 ming nafari esa ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi.

“Saxovat va ko'mak” jamg'armasi orqali 94 mingga yaqin kam ta'minlangan oilalarga davolanish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar bilan bog'liq 130 milliard so'mlik xarajatlar qoplab berildi.

“Ayollar haftasi” doirasida 3,5 million nafar opa-singillarimizga 5 trillion 700 milliard so'mlik yordam ajratildi.

“Yoshlar haftasi” joriy etilganidan buyon 1 million 300 ming nafar ehtiyojmand yoshlarga 1 trillion 700 milliard so'mlik ijtimoiy yordam ko'rsatildi.

Eng asosiysi, bu ishlarimiz izchil davom ettirilmoqda.

Boshlanishi 1-betda

Qadri marosim ishtirokchilari! Yangi O'zbekistonning ustuvor xususiyatlaridan yana biri — bu “yashil” taraqqiyot yo'lidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi ekologik makon barpo etilmoqda. “Yashil makon” umummilliy loyihasi aynan shu maqsadga qaratilgan.

“Atrof-muhitni asrash va yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilingan joriy yilda amalga oshirilayotgan davlat dasturi ham borada muhim qadam bo'lmoqda.

Yaqinda Xiva shahrida ilk bor kengaytirilgan tarkibda o'tkazilgan Konfessiyalararo kengash majlisida yurtimizdagi diniy konfessiyalar vakillari mazkur davlat dasturida faol ishtirok etishga qaratilgan murojaatoma qabul qilindi.

Albatta, jamiyatimizdagi ezgu ishlarida hurmatli din peshvolari, ulamo va nuroniylarimiz, keng jamoatchiligimiz faol ishtirok etayotganini minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz.

Bu yil “Yashil makon” loyihasi doirasida bahor mavsumining o'zida diniy soha xodimlari tomonidan 10 ming tupdan ziyod daraxt, 32 ming tupga yaqin gul ekilgani, masjid va ziyoratgohlarda 25 gektar yer obod qilingani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Yurtimiz hojilarining ham ko'plab xayriyalarida shaxsiy namuna ko'rsatib, o'mak bo'layotganlari albatta barchamizni xursand qiladi.

O'tgan yili muftiy Nuriddin Xoliqnazar hazratlari boshchiligidagi hojilarimiz “Yangi O'zbekiston fidoyisi bo'lib, ma'naviyat targ'ibotchisiga aylanamiz” degan tashabbusni ilgari surgan edilar. Shu kunga qadar ularning tashabbusi bilan kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand oilalarga 6 milliard 300 million so'm miqdorida moddiy yordamlar ko'rsatildi.

Bunday savobli ishlari uchun ularga barchamiz chin ko'ngildan tashakkur aytamiz.

Muhtaram vatandoshlar! Hozirgi kunda dunyodagi vaziyat o'ta qaltis va murakkab bo'lib borayotganini hammamiz ko'rib-bilib turibmiz.

Afsuski, aksariyat ziddiyat va mojarolar aynan islom dunyosida sodir bo'layotgani barchamizni chuqur tashvishga solmoqda.

Notinchlik o'choqlari istalgan paytda kengayib, butun-butun mintaqalarga yoyilib ketish xavfi tobora ortib bormoqda.

Musulmon mamlakatlarida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun birdamlik va islom ummami hamjihatligini yanada mustahkamlash har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

E'tiborimiz markazida turishi kerak bo'lgan yana bir masala — bu yoshlarimizning qalbi va ongini zaharlashga, hayotini izdan chiqarishga qaratilgan ko'plab tahdidlar bilan bog'liq.

Farzandlarimizni ilm-ma'rifatga targ'ib etish, yot g'oyalari ta'siridan saqlash borasida hurmatli imom-xatiblarimiz, ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlarimiz, mahalla faollari, hojilarimizning o'zni beqiyos, albatta.

Barchamiz sizlarning ushbu yo'nalishda olib borayotgan faoliyatini yuksak qadrlaymiz.

Buyuk Bahouddin Naqshband bobomizning “Qo'ling mehnatda, diling Allohda bo'lsin”, degan o'g'itlari hammamizning hayotiy e'tiqodimizga aylanib ketgan.

Yoshlarimizni mana shunday ruhda tarbiyalashda ularni mehnat va kasbga o'rgatish juda muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda, hurmatli nuroniylarimiz, mahalla faollari, mirishkor

fermerlarimiz, tadbirkorlarimiz yoshlarni halol mehnat qilib, oilasi va yurt farovonligi yo'lida tinimsiz izlanib yashashga o'rgatadilar, deb ishonaman.

Hurmatli do'stlar!

Ushbu fazilatli oy davomida yurtimizdagi 9,5 mingga yaqin mahallada kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarda iftorlik dasturxonlari yoziyib, xayr-saxovat ishlari amalga oshirildi.

Joylardagi bu tadbirlarda muftiy hazratlari va imom-xatiblarimiz ham xonadonna-xonadon yurib, faol ishtirok etishdi.

O'ylaymanki, “Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi” shiori ostida o'tkazilgan bunday xayriyalar inson qadrini ulug'lash, pok maqsadli barcha yurtdoshlarimizni yanada birlashtirishga xizmat qiladi.

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, “Yaxshilarning ishi — yaxshilik qilishdir”. Chindan ham, bu hayot aynan ezigulik va yaxshilik tufayli doimo yorug' va bardavomdir.

Shu bois ezgu niyatlar ijodat bo'ladigan muborak Ramazon oyida, Laylatul qadr kechasi arafasida turib, yurtimizda, butun dunyoda tinchlik va farovonlik, mehr-oqibat barqaror bo'lishini so'rab duolar qilamiz.

Iloyim, hayotimiz doimo mana shunday munavvar, fayzli va barakali bo'lsin!

Duogo'y otaxon va onaxonlarimiz sog'-omon bo'lsinlar!

Mehribon opa-singillarimiz, aka-ukalarimiz yonimizda doimo tog'dek tayanch bo'lib tursinlar!

Farzandlarimiz bilimli, kasb-hunarli, azm-u shijoatli yoshlar bo'lib, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etsinlar!

Yurtimiz tinch, mehnatkash, olijanob xalqimiz hamisha omon bo'lsin!

2025-yil — Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili

BIRNI KESMAY, O'NNI EKISH ISHTIYOQI

“Yashil makon” umummilliy loyihasi mamlakatimizdagi ekologik vaziyatni yanada yaxshilash, tabiiy resurslarni saqlash va hududlarda yashil maydonlarni kengaytirishda katta istiqbolga ega ekanini isbotlab borayotir. Ushbu tashabbus bugun yurtimizning barcha viloyatida, xususan, Surxondaryoda ham ko'chat yetishtirish, o'rmon hududlarini kengaytirish va ekologik madaniyatni oshirishga xizmat qilmoqda.



Loyiha doirasida 2024-yil kuzgi — 2025-yil bahorgi ko'chat ekish mavsumida viloyat hududida 16,4 million tup daraxt va buta ko'chati ekilishi belgilangan. Kuzgi ko'chat ekish mavsumida 6 million 401 ming tup daraxt va buta ko'chati ekilishi reja qilingan bo'lsa-da, amalda 6 million 591 ming nihol o'tkazilgan edi. Bahorgi ko'chat ekish mavsumida esa 10 million 24 ming tup ko'chat ekilishi ko'zda tutilgan. Shu kunlarda bu borada ishlar qizg'in davom ettirilyapti.

— Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida aholi o'rtasida ekologik savodxonlikni kuchaytirish, tabiatni asrash va ko'chat yetishtirishni ommalashtirishga qaratilgan turli tadbirlar o'tkazilmoqda, — deydi Surxondaryo davlat o'rmon xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i Sanjar Bo'ronov. — Viloyatimizda 83 gektar maydonni qamrab oluvchi 25 ta yashil jamoat parki tashkil etildi. Bu aholi salomatligini yaxshilash bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham katta hissa qo'shadi. “Yashil makon”

umummilliy loyihasi asosida bunday turdagi xiyobonlarni barpo etish, ko'chat yetishtirish va yetkazib berishda o'rmon xo'jaliklari katta ahamiyatga ega.

Surxondaryoda foydalanishga topshirilgan yashil parklarda turli daraxtlar, buta va gul nihollari ekilgan. Ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zamonaviy agrotexnika vositalaridan foydalanilmoqda. Shuningdek, viloyatda 36,6 gektar maydonni egallagan 15 ta hokimlik bog'i ham tashkil etilgan. Joriy mavsumda har bir hudud iqlimiga mos daraxt va buta ko'chatlarini yetishtirishga qaratilgan maqsadli dastur ishlab chiqilib, amalga oshirib borilmoqda.

— “Yashil makon” umummilliy loyihasining joriy mavsumida belgilangan reja asosida ko'chatlar Surxondaryo davlat o'rmon xo'jaligi tomonidan peshma-pesh olib yetkazib berildi. Maqsadga erishish uchun ko'chatning sifati va o'simliklar uchun eng qulay sharoitni ta'minlashga alohida e'tibor berilyapti, — deydi Surxondaryo viloyati

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Qahramon Bo'riyev.

Yangi ko'chatlar yetishtirish, sog'lom parvarish qilish va o'z vaqtida yetkazib berishda o'rmon xo'jaliklari faoliyati muhim o'rin tutadi. Shu bois, bu jarayonga ilmiy va amaliy yondashilyapti. Xususan, Surxondaryo viloyati o'rmon xo'jaligi boshqarmasi oliy ta'lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilib, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion agrotexnikalarni qo'llamoqda. Bu esa o'rmonlar himoyasini kuchaytirish, ko'chat yetishtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirishga katta yordam beradi.

Ilmiy ishlarni hayotga joriy qilish orqali sohada katta ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Bu esa ekologik holatni yaxshilash va tabiatni saqlashga xizmat qiladi. Surxondaryo davlat o'rmon xo'jaligi boshqarmasining Termiz tumanidagi Sabzipoya bo'limida bugun noyob ko'chatlar voha iqlim sharoitiga moslashtirilmoqda.

Loyiha doirasida bajarilayotgan ishlar natijadorligi muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari xalqaro avtomagistralning ikki tarafini daraxtzorga aylantirish va yashil qoplama barpo etish bo'yicha topshiriq bergan edi. Ayni paytda mazkur topshiriq ijrosi bo'yicha ham muayyan ishlar qilyayapti. Xususan, viloyatning Termiz tumanidagi xalqaro toifadagi yo'llar bo'yab ekologik tadbirlar o'tkazilyapti.

O'tgan yilning kuz mavsumida “Olmaota — Bishkek — Toshkent — Termiz” yo'nalishidagi M-39 xalqaro avtomobil yo'lining Termiz, Angor, Muzrabot hamda Sherobod tumanlari hududidan o'tuvchi 61

kilometrik qismiga manzarali daraxt ekish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarildi. Jumladan, yo'l yoqasidagi ilgari qarovsiz bo'lgan adir va toshloqlar tekislanib, unumdor tuproqqa almashirildi hamda “yashil belbog” g'aylantirildi.

Qiziriq tumani Surxondaryoning cho'l hududlaridan bo'lib, bu yerda ham ekologik muhitni yaxshilash va yashil maydonlarni kengaytirish maqsadida tizimli ishlar qilinmoqda.

— “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tumanimiz hududida keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlari bajarilmoqda, yangi daraxt va butalar ekilib, atrof-muhitni obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu cho'lga yondosh hudud bo'lgan tumanimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, aholining turmushi sifatini oshirishga ham xizmat qiladi, — deydi Qiziriq tumani hokimi o'rinbosari Zohidjon Adirov.

Surxondaryo viloyati janubiy qismida ko'p kuzatilayotgan, mahalliy til bilan aytganda, “afg'on shamoli”ning oldini olish, ta'sirini kamaytirish maqsadida Termiz, Angor va Jarqo'rg'on tumanlari tutashgan Kattaqum massivi hududidagi 14,8 ming gektar maydonga 100 ming tup saksovul ko'chati va 80 tonna urug'i ekilib, “yashil qalqon” barpo etilgan.

— Mazkur maydonda 290 mingdan ortiq ko'chat ekildi. Ularni sug'orish tizimi yaratildi. M-39 xalqaro avtomobil yo'li atrofidagi 122 kilometr maydonda sug'orish tizimi o'rnatildi, 32 ta hovuz kavlaniy, yomg'irliq sug'orish tizimi yo'lga qo'yildi, — deydi Surxondaryo viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi axborot xizmati rahbari Temur G'oyibnazarov. — “Yashil makon” loyihasi boshlangandan to shu kunga qadar viloyatda 40 milliondan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chati ekildi. Joriy bahorgi ko'chat ekish mavsumida 10 million 800 ming tup ko'chat o'tkazildi.

Xalqimiz azaldan tabiatni muqaddas deb bilgan. Sunvi, havoni, tuproqni, ostonani pok va toza saqlashga intilgan. “Birni kessang, o'nni ek” degan maqolga amal qilib, kattakatta bog'lar barpo etgan. Bu an'ana endi davlat ahamiyati va siyosati darajasiga ko'tarildi.

Sarvar TO'RAYEV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Yangicha yondashuvlar



ZAMONNING ILG'OR ODAMI

Bugun tadbirkorlik davrning ilg'or soharidan biriga aylanmoqda. Yaratilayotgan shart-sharoit, imtiyoz va imkoniyat soha vakillarini yangi marralarga undamoqda. Shu yil 19-mart kuni Prezidentimizning kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvi ishbiarmonlarga yanada kuch va g'ayrat bag'ishladi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari ko'plab tashabbus va g'oyalari, yangiliklarni aytdi. Ularning barchasi tadbirkorlarning dildagi gap bo'ldi. Eng asosiysi, jarayonga o'sha kunning o'zidayoq kirishildi va bu boradagi ishlar qizg'in davom etmoqda.

— Uchrashuv biz, tadbirkorlar faoliyatida yangi bosqich boshlanayotgani, soha davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida ekanini anglatadi, — deydi Nukus shahridagi “Visconti” korxonasi rahbari Miyrigul Kaipova. — Men ham tadbirkorligimni ana shu imkoniyatlar asosida, ya'ni 100 million so'm imtiyozli kredit olib, non va non mahsulotlarini ishlab chiqarishdan boshlaganman. Shunga ham bir yil bo'ldi. Ayni paytda korxonamizda mehnat qilayotgan 6 nafar xotin-qiz bilan birga aholi dasturxoniga 46 turdagi non va non mahsulotlarini yetkazib beryapmiz.

Nukusda imkoniyatdan samarali foydalanib kelayotgan tadbirkorlar ko'p. Hamidbek Qosimov shulardan biri. U dastlab bir muddat akasining korxonasida ishladi. Keyinchalik o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ydi: 2017-yilda “Osiyo yog'dusi” mas'uliyati cheklangan jamiyatini o'chdi.

— 2019-yilda investitsiya kiritish sharti bilan Nukus tumani “Samanbay” ovul fuqarolar yig'ini hududida bo'sh turgan ustaxonani jamiyat balansiga olib, qandolat sexi tashkil qildik, — deydi Hamidbek Qosimov. — Buning uchun Toshkentdan ilg'or tadbirkorlarni taklif qilib, maslahatini oldik, tajribasini o'rgandik. Shundan beri mahsulotlarimizni Nukus va Oqmg'it dehqon bozorlari, shuningdek, xorazmlik buyurtmachilarga sotaymiz.

Ellikqal'a tumanining “Navoiy” ovul fuqarolar yig'inida yashovchi Hamdam Said-Abdullayev qoraqalpoq sharoiti uchun noodati bo'lgan tadbirkorlik, ya'ni tuyaqush boqish bilan shug'ullanadi.

— Bu ishga Farg'ona viloyatidan 6 ta tuyaqush yig'ini olib kelib kirishgandim, — deydi tadbirkor. — So'ng inkubator sotib oldim. Hozir o'zim aholiga tuyaqush jo'jalarini sotayapman. Shug'ullansa bo'ladigan biznes ekan. Inkubatorida jo'jalar 42 kunda tuxumini yorib chiqadi. Ozigina parvarishlab sotuvga chiqaraman. Shu ish ortidan yiliga 300 million so'm sof foyda olayapman. Tuyaqush boqish oilaviy tadbirkorlik uchun juda qulay. Ikki kishi yetadi. Ozuqasini vaqtida berib tursangiz, bas. Kasallanish xavfi oz, faqat vaqtida emlab turish kerak.

Ayni paytda “Navoiy” ovul fuqarolar yig'inida yashayotgan 5925 kishidan 842 nafari chorvachilik, parrandachilik va asarichilik bilan shug'ullanadi. Ular davlatimiz rahbarining “Tadbirkorlik qancha tez rivojlansa, mamlakatimiz shuncha qudratli bo'ladi, xalqimiz shuncha farovon yashaydi” degan so'zlaridan kuch olib, astoydil mehnat qilmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri





BUNYODKORLIK, YARATUVCHANLIK RUHI VA SHIJOATI

BARHAMIZNI O'ZGARISHLAR SHUKUHI BILAN HARAKAT QILISHGA DA'VAT ETMOQDA



Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Xabarlariga ko'ra, 20 ming gektar maydonda bunyod etilayotgan Yangi Toshkentdagi bino va inshootlarni qurish uchun 38 yo'nalishda 10 mingga yaqin mutaxassis ishga taklif qilinmoqda. Ishchilar yotoqxona, kiyim-kechak, transport xizmati va uch mahal issiq ovqat bilan ta'minlanadi. Maoshi ish turi va soatidan kelib chiqib 8 million so'mdan 15 million so'mgacha. Rasmiy ishga joylashganlar uchun 8 soatlik ish rejimi hamda qo'shimcha dam olish kunlari amal qiladi.

Shu bois, bu qurilishda ishlash ko'plab yurtdoshlarimizning qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Bu bejiz emas. Zero, mehnat hayotimizning ajralmas qismi, har birimiz munosib maosh to'lanadigan, imkon qadar xavfsiz va qulay sharoitda ishlashni istaymiz. Ammo yaqin-yaqingacha munosib ish joyi topish amriyohal edi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi va hayot sifatiga ta'sirini o'tkazib kelardi. Xususan, ishsizlik jamiyatimizda kambag'allikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biriga aylangandi.

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lashni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim topish, barcha soha va tarmoqlarni zamon talabidan kelib chiqib modernizatsiyalash orqali yurtimizda sanoatni rivojlantirish, yangi ish joylarini barpo etish borasida dadil qadamlar tashlandi. Natijada iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiya jalb etish hajmi yildan yilga oshib, ko'plab ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etilyapti. Odamlarga tadbirkorlik, ishbilarmonlik ko'nikmasini rivojlantirish orqali kichik biznes sohasi kengayishiga keng yo'l ochildi. Bu esa aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga zamin yaratmoqda. Shu maqsadda ilg'or xorijiy yondashuvlar hamda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, eng qiyoyi bo'lgan — mahalla darajasiga tushgan



holda ish yuritish, aholi daromadini oshirishda fuqarolarning kasb-hunar egallashi va o'z biznesini boshlashiga ko'maklashilyapti.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yili aholining bandligiga ko'maklashish dasturi doirasida 5 million 265 ming kishi daromadli ish bilan ta'minlandi. 326 mingga mikroloyiha ishga tushirilishi hisobiga 578 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi.

Joriy yilda bu xayriy ishlar yuqori bosqichga ko'tarilib, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda muhim va hal qiluvchi yil bo'lishi belgilandi. Bu yil ham 5 million 200 ming kishini band qilib, 1,5 millionini kambag'allikdan chiqarish, 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etib, eksporti 30 milliard dollardan oshirish hisob-kitob qilingan.

O'z navbatida, xalqimiz uchun munosib va farovon hayot barpo etishni ko'zlab amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar fuqarolarning hayotida qanday aks etayotgani, odamlarning boradagi fikr va qarashlari qanday ekanini bilish jamiyatni yanada rivojlantirishning istiqboldagi yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi hamda Jahon banki tomonidan amalga oshirib kelinayotgan "O'zbekiston fuqarolarini tinglab" loyihasining maqsadi ana shunday dolzarb masalalarga yechim topishga yo'naltirilgan.

Bu O'zbekistondagi islohotlarning fuqarolar hayotida qanchalik aks etayotganini o'rganib borayotgan yagona tadqiqot loyihasidir. Ushbu loyiha doirasida 2023-yilda o'tkazilgan

so'rovnoma uy xo'jaliklarining 55 foizi daromad topish uchun sharoitlar yaxshilanganini aytgan edi. Joriy yilda 1500 ga yaqin uy xo'jaligi bilan bu xususda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 88 foiz xo'jaliklar joriy xulosaga bergan. Umuman, O'zbekiston aholisining 94 foizi bugungi islohotlarni qo'llashini bildirgan. Albatta, bu yutuqlar har bir islohotni amalga oshirishda xalq bilan muloqotning oqilona tizimi yo'lga qo'yilganining o'ziga xos samarasidir.

Bunday ezu ishlar izchil davom etmoqda. Shu maqsadda 2025-yil avvalidan aholi bandligini ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy qilindi. 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari o'rtasida bu borada hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bank filiallarida mahallabay ishlash bo'limlari tashkil etilib, ularga mahalla bankirlari tayinlandi. Natijada yanvarda 239 ming, fevralda 480 ming kishi daromadli mehnatga jalb qilindi.

Yil boshidan kichik va o'rta biznesga jami 14 trillion so'mlik kredit yo'naltirildi. Jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 trillion so'm ajratildi. Odamlarga daromad topish imkoniyati, tayyor biznes loyihalari tanishtirilib, amalga oshirish yo'llari o'rgatilmog'chi.

Prezidentimizning shu yil 6-martdagi "Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi farmoyishi asosida bu jahadagi ishlar ko'lami tobora kengaymoqda. Unga ko'ra, 2025-yil 11-martdan boshlab "Dolzarb bir oylik" safarbarligi e'lon qilindi. O'ylik doirasida mahallalarda 29 mingga kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Buning uchun zarur qishloq xo'jaligi texnikasi va uskunalar, aholi xonadonlariga 1,23 million bosh parranda, 24 ming quti asalari, 21 ming bosh qo'y-echki va qoramol yetkazib beriladi.

Shuningdek, "Bir mahalla — bir mahsulot" hamda ijara yerlarda "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida sardoromad ekinlar ekiladi. "Yashil makon" loyihasi doirasida

Bundan tashqari, kambag'al oilalarning har bir a'zosi bir yilda bir marta to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishi, har bir farzandi sport to'garaklariga qatnashishi uchun imkoniyatlar yaratish, ularga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish diqqat markazida bo'ladi. Bunday oilalarning yashash sharoitini yaxshilash uchun ipoteka tizimidan foydalanishni yanada kengaytiriladi.

Barcha bo'g'indagi davlat hokimiyati organlari kambag'al oilalar bilan muntazam to'g'ridan to'g'ri aloqa o'rnatishi, birdamlikda harakat qilishi hamda rahbarlarni kambag'al oilalarga birkirish, ularning muammolarini birgalikda yechishga ko'maklashish borasida tizimli ishlar bajariladi.

Shu bilan birga, yurtimizda kambag'allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijroiy natijalar va to'plangan amaliy tajribadan kelib chiqib, ilg'or xalqaro amaliyot asosida yangi yondashuvlar joriy etilmog'chi. Misol uchun, o'rmon fondi yerida o'rmonlar va ko'chatxonalar tashkil etishi, dorivor o'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish orqali 46 ming kishining bandligi ta'minlanadi. Kooperatsiya asosida sharoitli va qator mahallalarda quyosh fotoelektr stansiyalarini barpo etish, "kompaniya — kooperativ — dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish, turizm xizmatlarini rivojlantirish va turizm mahallalarini barpo etish orqali yangi ish o'rinlarini ochish ko'zda tutilgan. Axborot texnologiyalari sohasida zamonaviy kasblarga bepul o'qitish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'al aholiga yangi yondashuvlar asosida yordam ko'rsatish rejalashtirilgan.

Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat

Aholining ishsiz qatlamini va kambag'al oilalar a'zolari doimiy ishli bo'lishi yoki yuqori daromad topishi uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovga muhtoj. Shu maqsadda ishsizlar va kambag'al oilalar a'zolari mehnat bozorida talab yuqori va yaxshi maoshli kasb bo'yicha o'qitilmog'chi. Bundan tashqari, ularning kafolatlangan tibbiy-ijtimoiy xizmatlardan foydalanishini ta'minlayapti. Yashash sharoitini yaxshilashga ko'maklashilmog'chi.

Shuningdek, sharoitli va mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash ham e'tibordir. Bu jahadagi ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili hayotga tatbiq etilyapti.

— Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad, avvalo,



aholining bandlik darajasini oshirish va yuqori daromad topishiga erishishdir, — deydi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi departamenti boshlig'i o'rinbosari Muxtor Shonazarov. — Endi aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan yangicha tamoyillar asosida ish yuritilib, har bir tumanida 5 tadan drayver loyihasi amalga oshirish, 100 ming gektar qo'shimcha yer maydonini aholiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun uzqoq muddatga ijaraga berish, kambag'al oilalarga ko'chma do'kon, motoroller, skuter kabi vositalarni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan ssuda asosida berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, kambag'al oilalar farzandlarining maktabgacha ta'lim qamrovini 80 foizga yetkazish, oilaning kamida bir farzandini xorijiy tillarga, kasb-hunarga o'qitish, bir farzandi oliy ma'lumotga ega bo'lishi uchun sharoit yaratish choralari ko'riladi. Bunda xotin-qizlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Bolalarni axborot texnologiyalari bo'yicha o'qitish ham e'tibordir bo'ladi.

Bundan tashqari, kambag'al oilalarning har bir a'zosi bir yilda bir marta to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishi, har bir farzandi sport to'garaklariga qatnashishi uchun imkoniyatlar yaratish, ularga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish diqqat markazida bo'ladi. Bunday oilalarning yashash sharoitini yaxshilash uchun ipoteka tizimidan foydalanishni yanada kengaytiriladi.

Barcha bo'g'indagi davlat hokimiyati organlari kambag'al oilalar bilan muntazam to'g'ridan to'g'ri aloqa o'rnatishi, birdamlikda harakat qilishi hamda rahbarlarni kambag'al oilalarga birkirish, ularning muammolarini birgalikda yechishga ko'maklashish borasida tizimli ishlar bajariladi.

Shu bilan birga, yurtimizda kambag'allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijroiy natijalar va to'plangan amaliy tajribadan kelib chiqib, ilg'or xalqaro amaliyot asosida yangi yondashuvlar joriy etilmog'chi. Misol uchun, o'rmon fondi yerida o'rmonlar va ko'chatxonalar tashkil etishi, dorivor o'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish orqali 46 ming kishining bandligi ta'minlanadi. Kooperatsiya asosida sharoitli va qator mahallalarda quyosh fotoelektr stansiyalarini barpo etish, "kompaniya — kooperativ — dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish, turizm xizmatlarini rivojlantirish va turizm mahallalarini barpo etish orqali yangi ish o'rinlarini ochish ko'zda tutilgan. Axborot texnologiyalari sohasida zamonaviy kasblarga bepul o'qitish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'al aholiga yangi yondashuvlar asosida yordam ko'rsatish rejalashtirilgan.

100 ta eng samarali mikroloyiha

Aholining bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlarning o'rni katta. Shu bois, avvalo, tadbirkorlik rivojiga keng yo'l ochish, qolaversa, aholini tadbirkorlikka jalb qilish, yangi loyihalarni amalga oshirish orqali bandligini ta'minlash va kambag'al oila a'zolarini ishli qilishga alohida e'tibor qaratilmog'chi. Shu maqsadda hududlarda ijroiy natija bergan loyihalar orasidan "100 ta eng samarali mikroloyiha" katalogi yaratilib, hokim yordamchilari orqali barcha hududda ommalashtirilmog'chi.



Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi "IMDI baby" xususiy korxonasi ham mazkur ro'yxatga kirgan ishlab chiqarish tuzilmalaridan. Tashkil topganiga endi 5 yil bo'lgan ushbu korxonaga qisqa muddatda mahalliy bozorlardan mustahkam o'rin egallash bilan bog'liq cheklanmay, AQSH, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi davlatlarga mahsulotini eksport qilmoqda.

Korxonaga rahbari Gulruh Abdujabborova esa o'tgan 5 yilda "Ayollar haftasi"da turgan ishsizdan katta tadbirkorga aylandi. Bugun korxonaning yillik sof daromadi 100 million so'mga yetdi. Hozir bu yerda 30 dan ziyod kishi ish bilan band.

Bor-yo'g'i 5 yilda bunday katta yutuqlarga erishishning siri nimada? Buning uchun iste'dod, bilim va intilishning o'zi yetarlimi? Gulruh Abdujabborovanning tadbirkorlik sohasida erishayotgan natijalarini ko'rgan ko'plab yoshlar unga havas bilan qarashi barobarida, dilida kechayotgan ana shunday savollariga javob olishni istaydi. Tadbirkor ayol esa yoshlarga o'zining hayot yo'li, tajribasi, yutuqlari haqida so'zlar ekan, avvalo, bularning barchasi yurtimizda tadbirkorlik rivoji uchun yaratilgan zamonaviy muhit mahsuli ekanini, qolaversa, oilasi, yaqinlari ko'magida ushbu natijalarga erishganini takror-takror aytishdan charchamaydi.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlar safini kengaytirish borasida barcha sharoit yaratilmog'chi. Aholining munosib daromad topishi va farovon hayot kechirishiga oliyiy tadbirkorlik va kichik biznesning muhim o'rni e'tiborga olinib, ushbu sohalar izchil rivojlantirilyapti.

Xususan, o'tgan yili "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish" dasturi doirasida 372 mingga loyiha imtiyozli kredit bilan qo'llab-quvvatlandi. "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida o'quv kurslarida 54 mingdan ziyod tadbirkor o'qitildi. Maxsus kursni tamomlagan tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash kengaysa, albatta, yanada yuqori natijalarga erishiladi. Shularni



inobatga olib, kompleks dastur doirasida kursda qo'shimcha ta'lim olgan tadbirkorlarning 90 foiziga kredit mablag'i ajratildi.

Shu bilan birga, 67 ming 700 nafar ishsiz, ayniqsa, kambag'al oilalar a'zolarining tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik faoliyatini rag'batlantirish uchun subsidiya ajratildi.

Bunday imkoniyat esa tadbirkorlar safini tobora kengaytiriyapti. Qibraylik Saida Yangiboyeva ham ana shunday zamondoshlarimizdan. Tikuvchilik — unga momomeros kasb. Avlodidan avlodga o'tib kelayotgan ushbu hunarni onasidan o'rgangan. Ro'zg'or ishlari, bolalar tarbiyasidan bo'sh vaqtda qo'ni-qo'shning buyurtmasi bo'yicha ishlab, oilasiga daromad kiritib kelgan.

O'sha paytlarda bir kun kelib shu hunari orqali katta tadbirkorga aylinishi aslo xayoliga kelmadi. "Ayollar haftasi" yuritila boshlagach, xotin-qizlar shu orqali qo'llab-quvvatlanayotganini eshitib, mahalla fuqarolar yig'iniga murojaat qiladi. "Ayollar haftasi" ro'yxatiga olinib, "Biznesga birinchi qadam" dasturi orqali olingan kredit natijasida faoliyati kengaya boshlaydi.

Uning tikuv sexida milliy kashtachilik buyumlarini tikiladi va ko'rpa-to'shak qaviladi. Sifatli va milliy andozalarga mos bo'lgan ushbu mahsulotlarning bozori juda chaqqon. Hozir bu yerda 5 ayol ish bilan band. Ish jarayoni asosan, qo'l mehnatiga asoslangani sababli energiya va boshqa resurslarga katta ehtiyoj yo'q. Ammo mahsulotlar xaridorgir va bu ishchilarning mehnatidan munosib daromad topishini ta'minlayapti. Natijada Saida Yangiboyeva "100 ta eng samarali mikroloyiha" katalogidan o'rinni olgan faol tadbirkorlardan biriga aylandi.

Bundan bir necha yil avval o'z biznes loyihasini yo'lga qo'yib, tadbirkor bo'lasan, deiyisha ishonish qiyin edi, — deydi S.Yangiboyeva. — O'shanda qo'ni-qo'shning buyurtmasini tikib oilaga ozgina daromad kiritganimga ham quvonardim. Bugun esa hayot tarzimiz butunlay o'zgardi. Ajdoddardan meros bo'lib kelayotgan hunarimiz ortidan katta tadbirkorga aylanyapmiz. Halol



mehnatimiz tufayli yaxshi daromad topib, to'kis yashayapmiz. Qolaversa, ishsiz ayollarni ishli qilib, ulargayam tadbirkorlik yo'lini o'rgatayapmiz. Bugun biznesimiz rivoji uchun imkoniyatlar katta. Ulardan oqilona foydalanib, ham o'zimiz boyishimiz, ham davlatimiz rivojiga hissa qo'shish — asosiy burchimiz deb bilaman.

O'z navbatida, davlatimiz tomonidan ana shunday faol, tashabbuskor, izlanuvchan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash barobarida, ishbilarmonlar safini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Jumladan, aholini tadbirkorlikka jalb qilish, yangi loyihalarni amalga oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash va kambag'al oilalar a'zolarini ishga joylashtirish ko'zda tutilgan. Shu maqsadda joriy yilda 50 ta tumanda, 2026-yilda qolgan tumanlarda 50-100 gektardan ijara asosida ajratilgan yerda sanoatlashgan plantatsiya, bog' va uzumzorlar tashkil etiladi. "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida tumanlarda mahallalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha namunaviy loyihalar amalga oshiriladi. 2026-yilga qadar har bir hududda kamida ikkita dan ko'p qavatli kompleks sanoat markazlari barpo etiladi va tadbirkorlar joylashtiriladi.

Sanoat kirib bormagan mahallalarda 2025-yilda 1000 ta, 2026-yilda 2000 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab mahalla kichik ishlab chiqarish loyihasi ishga tushiriladi. Har yili kamida 500 ta hunarmandchilik va kasanachilik loyihasini mahallaning o'zida joriy etish hamda kengaytirish chorasi ko'riladi. 2025-yilda qadar 2000 ta mahallada, 2026-yil yakuniga qadar qolgan mahallalarda salohiyati tadbirkorlar va brokerlar bilan hamkorlikda yetakchi tadbirkorlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

2025-yildan boshlab yetakchi tadbirkorlarni jalb qilish holda iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalarga ixtisoslashgan mahallalar soni har yili 10 foiz oshirib boriladi. Har yili o'zini o'zi band qilgan 50 ming fuqaroni bosqichli bosqich kichik biznes subyektlariga aylantirish chorasi ko'riladi.

Albatta, bu xayriy ishlar tadbirkorlik rivoji uchun muhim istiqbollarni ochadi. Xususan, sanoat kirib bormagan, ishsizlik jiddiy muammo bo'lgan chekka hududlarda kichik ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etiladi. Bu har kim o'z yashash joyiga yaqin hududda munosib ish topishi uchun qulay imkoniyat degandir.

Qolaversa, hududlarga sanoatni olib kirish orqali chekka qishloqlarda nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki qon-qonimizda yashirib yotgan tadbirkorlik, ishbilarmonlik ruhini uyg'otish, yaratuvchanlik, bunyodkorlik tuyg'usini jo'sh urdirish, degandir.

Mamlakatimiz bo'yab qizg'in ruhda davom etayotgan bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar, "Dolzarb bir oylik" safarbarligi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi va boshqa ezu tashabbuslar ushbu xayriy ishlarga yangicha sur'at va shiddat baxsh etmoqda. Shu tarzda yangilanishlar nafari har bir mahalla, har xonadonga, eng muhimi, har bir inson qalbiga kirib borib, barchani o'zgarishlar shukuhiga hamohang qadam tashlash, yangicha imkoniyatlardan foydalanib yaratuvchanlik ruhi bilan yashashga da'vat etmoqda. Bu chaqiriqlarga har birimiz munosib javob qaytarsak, xayriy ishlarda kamabasta bo'lsak, vatan taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

“Dolzarb bir oylik” safarbarligi

Ota poytaxtda ishlaydigan o'g'liga qo'ng'iroq qilib, tomorqani choptirish, ekin ekish uchun pul zarurligini aytdi. O'g'il esa biror haftada maosh olishini, shu kunlarda ortiqcha mablag'i yo'qligini bildirdi. “Unda qarz olib bo'lsa ham yerni haydatib turaveraman, chunki tomorqasida ekin-tikin ishlarini boshlamagan xonadonlarni ro'yxatga olishyapti”, dedi ota.



25 YILLIK MUAMMO

YECHIMINI TOPDI

Ha, tomorqasini qarovsiz qoldirgan fuqarolarga yer solig'ini uch barobar to'lash chorasi ko'plab odamlarni hushyor torttirib qo'ydi. “Dolzarb bir oylik” safarbarligi mas'ullardan mahallabay, xonadonbay ishlashda faollikni talab qilaypti. Shuning uchun ham ayni kunlarda tomorqaci bor odam xoh o'zi, xoh odam yollab yer chopishu ekin ekish bilan band. Biroq tomorqasi yillar davomida to'yib suv ichmagani, oqar suv ko'maganlar ham bor. Ular faqat suvsizlikka chidamli daraxtlar ekishdan nariga o'tolmaydi. Biz kabilar nima qiladi endi, deya o'ylanib turgan Chortoqning Qoramurt mahallasi ahli shu kunlarda “suv keldi” degan xabarni orziqib kutaypti.



Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrda “Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi mahallaning koriga yaradi. Chunki ayni dastur doirasida hududlarda aholi tomorqalarini sug'orish tizimini yaxshilash uchun bu yil qirlikda joylashgan Qoramurt mahallasi tanlangan. Qiymati qariyb 3 milliard so'mlik ushbu loyiha amalga oshsa,

mahalladagi 648 ta xonadondan 410 tasi oqar suvdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni paytda mahallada ish qizg'in. “Afsonaviy quruvchi” MCHJ 3,5 kilometrdan 280 diametrli quvurlarda suv tortish ishlarini yakunlash arafasida.

Hatto rezavorlarni ham bozordan xarid qiladigan mahalla ahli aksariyat xonadonlarda faqatgina bodom daraxtini ko'rsiz. Suvsizlikka chidamli deyilgan shu

saqlab qolish uchun suv tashib bo'lsa-da, harakat qilgan. Faol ko'chaboshlardan biri Shavkatjon Mirahmedov bundan 20 yil avval uy-joy qilish uchun katta pulga suv olib kelib, mashaqqat bilan boshpana qurganini eslatdi. Faqat mahalladagi birgina tadbirkor uyidan suv chiqargan, issiqxona qurgan.

— 2 ta suv omborimiz bor. Qoramurt va Chortoq suv omborlari. Lekin ularning suvi shu paytgacha bizga nasib qilmagan. Ekinlarimiz qurib ketdi. Mana, mahallamizga oqar suv tarmog'ini tortish bu yil rejaga kirib, suv omboridan suv olib kelinyapti. Bu xushxabarni eshitganimdan keyin xursand bo'lib kartoshka ekyapman. Vaholanki, hech qachon ushbu ekinni ekmas edik. Endi rezavor ekinlardan ham ko'proq ekyapimiz. Aslida, har yil bahor kelishi bilan tomorqaga mevali daraxtlar ekib, kundalik ehtiyoj uchun poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirgimiz kelardi. Lekin sug'orish muammosi sabab bunga botinmasdik. Shuncha qilgan mehnatimiz bir pul bo'lmasin, derdik-da. Chunki hosil olish u yoqdan tursin, undirishning o'zi amrimahol edi. Endi ikkilanmaymiz. Bu qilinayotgan xayrii ishlar, albatta, o'z natijasini ko'rsatadi. Tomorqalarimiz gullab-yashnaydi, — deydi mahalla faollaridan yana biri Rustamjon aka Hakimjonov.

Bir tanishimning quyidagi gapini yodimga tushdi: “Suv yetib bormagan joydan tekinga bersa ham, qasr bo'lsa ham uy olmayman”. Zahmatkash qoramurtliklar esa chorak asr chelaklab suv tashib, tomorqalarini butunlay qaqrab qolishdan asrab keldi. Shuning uchun ham bugun ularning ko'pi “Yaqinda tomorqalarimizga oqar suv keladi”, degan gapga ishongisi kelmaypti. Obihayotning yangi hayot olib kelishiga ishonch bog'laganlar esa quvvur tortayotgan ustalarining choy-ovqatidan bajonidil xabar olib turibdi. Ular uchun mahallada barcha zarur sharoitlar yaratib berildi.

Munojat MO'MINOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

daraxt ham serhosil bo'lishi dargumon bu hududga 25 yil deganda oqar suv kelayotgani tarixiy voqealik. Mahalla raisi G'ayrat Omonjonovning aytishicha, shu paytgacha suv butunlay yo'q bo'lgan emas, bo'lgan. Biroq tomorqadan hosil olish darajasida emas. Tomorqalar esa katta. Bodomdan ham atigi 1-1,5 kilogrammdan meva olingan. Uyam risoladagidek bodom emas, juda mayda holda pishadi. Suvsizlikda pishgan mevaning ta'mi ham haminqadar bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, aholi loqal mevali daraxtlarni

CHIQUINDI O'Z O'RNIGA TASHLANSA — BOYLIK

Mulohaza

Tasodifan ko'chada 50 yoshlar atrofidagi yurtdoshimiz bir binoni ko'rsatib yuborishimni so'radi. Yo'l bahona o'zgina suhbatlashib ham ketdik. Sumkasi katta bo'lgani uchun yordamlashmoqchi bo'ldim, u yeg'im emasligini, bir necha yelim idish borligini aytdi.



savolga javob izlab, internetdagi manbalar bilan tanishib chiqdik. Ularning katta qismida bu jarayon bolalarda kichikligidan, maktab yoki bog'cha yoshidan boshlab shakllantirilishi kerak, degan fikr ilgari surilgan. Masalan, ijtimoiy madaniyati bilan mashhur bo'lgan Yaponiyada o'quvchilar sinfxonalar va maktab hududini o'zlariga tozalaydi. Ularda maxsus “sojii”, ya'ni tozalash vaqti bor, bu orqali bolalar shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatini his qilishni o'rganadi. Umuman olganda, Yaponiyada bolalar chiqindilarni ajratishni bog'cha yoshidan o'rganadi. Ularga shu paytdanoq plastik, qog'oz, organik chiqindilarni alohida qutilarga tashlash o'qitiladi. Bu tarbiya esa bir umr ularning yodida saqlanadi.

Zamonaviy mamlakatlar chiqindiga ortiqcha yuk emas, sanoatning bir bo'lagi sifatida qaray boshlagan bir davrda biz bu kabi ekologik odatlarga o'rgana olmayotganimiz, albatta, yaxshi emas. Internetdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar chiqindilarni yo'qligidan no'ldir. Bugun ularning soni sezilarli ko'paydi, biroq shu bilan ham yo'l chetlariga ariqlar ichiga chiqindi tashlash odati kamaygani sezilmaypti. Go'yo biz tashlagan kichkina chiqindi butun shaharni ifloslantirmaydi. Yana o'zimizga tashin beramiz: shu chiqindilarni tozalash uchun obodonlashtirish xodimlari maosh o'laypti-ku... Bu holat g'alati ko'rinsa-da, hali esini tanimagan bolakayning izini onasi tozalab yurishiga o'xshaydi. Vaholanki, ko'cha-ko'ya kap-katta kishilarning ham qo'lidagi chiqindini to'g'ri kelgan joyga uloqtirib ketishlariga duch kelamiz.

Xo'sh, odamlarda chiqindilarni belgilangan joyga tashlash odatini qanday shakllantirish mumkin? Shu

aynan chiqindini qayta ishlash sanoati natijasida mamlakatda minglab inson ish bilan ta'minlangan. Chiqindiga “neftdan keyingi boylik”, deya berilgan ta'riflar ham bor. Agar bu ta'rifni ma'qullasak, demak, biz unga beparvoqlik qilib, qaysirdir ma'noda isrofga yo'l qo'yayotgan bo'lamizmi?

Chiqindi keraksiz joyda yotsa, tabiat uchun nihoyatda zararli, qayta ishlanganda esa mo'ay daromad manbai. To'g'ri, mamlakatimizda chiqindini qayta ishlash borasida katta loyihalar amalga oshirilmoqda, biroq ularning qamrovi hali to'laligicha ehtiyojni qamrab olmaydi. Qamrov deganimiz, ular mahallalarda tashkil etilgan chiqindixonalaridagi chiqindini qayta ishlashga ulgurishi mumkin, biroq ko'cha-ko'ya, tabiat qo'yniga, suv havzalariga biz uloqtirayotgan chiqindilarni o'z vaqtida qayta ishlash olmaydi. Natijada ular tuproqqa ko'milib, ekologiya uchun zararli omilga aylanadi. Masalan, o'ddiy shisha idish chirib, butunlay yo'qolishi uchun naqd 3 ming yil kerak bo'larkan. Endi tasavvur qilaylik, e'tiborsizligimiz tufayli necha million tonnalab chiqindi tuproqqa qorishib, tabiatni zararlab yotibdi! Yaxshiyam tabiatning bag'rikeng.

Tadqiqotlarga ko'ra, aholi gajum shaharlarda tuproqning salkam 30 foizi chiqindi bilan to'lib bo'lgan. Afsuski, ushbu raqam muttasil o'sib bormoqda. Bu esa barchamizdan ogohlik, ona tabiatga xayrixohlik hissinu kuchaytirishni talab qiladi. Munosabati esa bolalarga go'daklikdan, o'zimizga esa hozirning o'zidan boshlab o'rgatib borishimiz ayni muddao.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

E'tirof

“Davlatimiz rahbari e'tiboriga tushgan tadbirkor Shahnoza Karimova, avvalo, ijtimoiy ko'makka muhoj, iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan ayollarni qo'llab-quvvatlashni o'z oldiga maqsad qildi, ularning orzulariga qanot bo'ldi. Uning tashabbusi bilan 50 nafar ehtiyojmand xotin-qiz o'qitildi, 10 nafar muhoj ayolga uy-joy sotib olishi uchun boshlang'ich to'lovni tadbirkor o'z zimmasiga oldi.



TADBIRKOR FAQAT O'ZINI O'YLAMASLIGI KERAK

Boshlanishi 1-betda

Navoiylik tadbirkor bejiz shunday e'tirof etilmadi. Haqiqatan, ayni vaqtda tadbirkorlik sohasida samarali faoliyat yuritayotgan Shahnoza Karimova aholi bandligini ta'minlash va muhoj oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha ham ezgu ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Sifat, yaxshi xizmat, muomala madaniyati, tinimsiz mehnat va yangilikka intilish ishtiyoqi korxonada muvaffaqiyatini ta'minlashi shubhasiz. Shu tamoyillar asosida faoliyat yuritayotgan “Baraka Non Navoiy” MCHJni bugun navoiyliklar yaxshi biladi. Viloyat markazidan tumanlarga, doimiy mijozdan tortib, didi nozik iste'molchigacha — barchaga birdek yoqayotgan mahsulotlarning soni, turi ortib bormoqda. Bunday natija ishbilarmonga omda kulganidan emas, tinimsiz mehnat, bozor talabini o'rganish va intilish mahsulidir.

Tadbirkor Shahnoza Karimova ham dastlab faoliyatini boshlaganda qiyinchiliklarga duch kelgan va ulami matonat bilan yengib o'tgan. Novvoylik bilan shug'ullanadigan turmush o'rtog'i faoliyatini kengaytirib, yanada rivojlantirdi. Bugungi kunda yirik korxonaga aylangan ushbu maskanda tayyorlanadigan non va non

— Uyimiz juda xarob ahvolda, daromadimiz ham, yashash sharoitimiz ham yaxshi emas edi. Biz ham yaxshi yillarda yasharkannimiz, deb ko'p o'ylardim. Saxiy insonlar bor ekan. Hozir barcha qulayliklari bor zamonaviy, shinam uyga ega bo'ldik. Farzandlarim juda xursand. Avval g'amdan yig'lasam, bugun ko'zimda quvonch ko'z yoshlari, — deydi Nortosh Shomurodova.

Soniya Adizovaning ham uzoq tumandan shahar markaziga qatnab ishlashdek qiyinchiligi ortda qoldi. Ko'p yillik mehnati va fidoyiligi uchun unga tadbirkor Shahnoza Karimova tomonidan Navoiy shahridan yangi, ta'mirlangan, barcha mebel jihozlarini, maishiy texnika vositalari bilan ta'minlangan xonadon tuhfa qilindi.

Bugungi kunda viloyatning boshqa tumanlarida ham korxonada filiallari ochilmoqda. Hozir ilk filial Navbahor tumanida ish boshladi. Tumandagi Paxtakor mahallasida bo'sh turgan binoni ijaraga olib, non va non mahsulotlari, shirinliklar tayyorlash sexlari tashkil etgan tadbirkor mahalladagi ijtimoiy ko'makka muhoj xotin-qizlarni band qildi. Bugungi kunda ishli bo'lgan ehtiyojmand ayollar o'z hayotidan ham, tadbirkordan ham minnatdor.

— Mahallamizda ushbu korxonada filiali ochilgani biz uchun ayni muddao bo'ldi. Ishsizligim va farzandlarimni o'qitayotganimiz tufayli bir oz qiyalayotgandik. Shu



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

mahsulotlari Navoiy shahri va unga qo'shni bo'lgan hududlarda “Baraka non” nomi bilan mashhur.

— Dastlab kichik novvoyxonani ijaraga olib ish boshlaganmiz. Oilamiz bilan ijarada yashardik. Tun-ukun mehnat qilib, uy-joy, bozorlarda non sotardik. Juda qiyin davrimiz, bir qog'unga ham pul topolmay qolgan vaqtimiz bo'lgan. 2017-2018-yillarda tadbirkorlarga yaratilgan qulayliklar va imtiyozli kreditlardan foydalanib, zarur uskunalar xarid qildik. Non va non mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonaga tashkil qildik. Bosqichma-bosqich mahsulotlarni turini ko'paytirdik. Xaridorlar mahsulotlarimizni barakali deb e'tirof etishardi. Shuning uchun ham korxonamizni “Baraka Non Navoiy” deb nomlaganmiz, — deydi tadbirkor Shahnoza Karimova.

Bugungi kunda korxonada 200 ga yaqin fuqaro doimiy ish bilan band. Ularning 70 foizi xotin-qizlar. Kichik novvoyxonaning kengayishi nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki 300 turdan ortiq non va non mahsulotlarini tayyorlash imkonini berdi. Aholiga yetkazilayotgan shirinliklarning turi esa 200 dan ortiq.

Qandolat va non mahsulotlari mehmondo'st xalqimiz dasturxonining ko'rki. O'z yaqinlariga tayyorlaydiganidek mijozlarga yetkazib beriladigan shirinliklar, yarim tayyor yeguliklar rastalarda o'z xaridorini uzoq kutib qolmaydi. Bir zumda xarid qilinadi, hatto homur, chaqqon pazandalar ularni yetkazib berishga ulgurmay qoladigan vaziyatlar bo'ladi. Muhimi, korxonada o'z ishi, hayotidan mamnun, minnatdor, ko'ngli ochiq samimiy kishilar mehnat qiladi. Ularning shukronasi esa barakaning garovi.

Davlatimiz rahbari e'tiboriga tushgan tadbirkor Shahnoza Karimova, avvalo, ijtimoiy ko'makka muhoj, iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan ayollarni qo'llab-quvvatlashni o'z oldiga maqsad qildi, ularning orzulariga qanot bo'ldi. Uning tashabbusi bilan 50 nafar ehtiyojmand xotin-qiz o'qitildi, 10 nafar muhoj ayolga uy-joy sotib olishi uchun boshlang'ich to'lovni tadbirkor o'z zimmasiga oldi.

Navbahorlik Nortosh Shomurodovning hayoti tubdan o'zgarishida Shahnoza Karimovanning hissasi katta. Yangi yo'l mahallasida istiqomat qiluvchi ayol 2013-yilda boquvchisini yo'qotgach, moddiy qiyinchilikka duch keldi. Eski hovli, noqulay sharoit, ikki farzandni voyaga yetkazish mas'uliyati xonadon bekasining ertangi kunga ishonchini so'ndirdi. Boshqalar kabi barcha qulayliklarga ega uyda yashash maqsadi orzuligicha qolishi mumkin edi. Tadbirkor Shahnoza Karimova ehtiyojmand oilaga yangi uy qurib berdi.

yerga ishga kirganimdan so'ng qiyinchiliklarimiz ortda qoldi. Sababi, oylik maoshi yaxshi va mehnat qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Men bilan birga ishlayotgan xotin-qizlar ham yaqin kulgargacha ehtiyojmand edi. Hozir barchasi shu yerdan doimiy daromadga ega bo'lib, farovon hayot kechirmoqda, — deydi Mahbuba Doniyorova.

Albatta, hududlarda yangi loyihalar ish boshlashi va korxonalar ochilishi o'sha yerning mahalliy aholisi uchun ish o'rinlarini yaratishi bilan ahamiyatlidir. Muhimi, halol daromad insonlarning ongi, qalbi va dunyoqarashi o'zgarishiga turki bo'laypti. Shu bois, korxonada ishchi-xodimlari o'z hayotidagi ijobiy o'zgarishlardan mamnun.

Mehnat evaziga hurmat, e'tibor topgan tadbirkorning boshqalar taqdiriga ham befarq emasligi tahsinga sazovor. Hayoti yaxshi tomonga o'zgaragan ayollarning duolari, ishbilarmonlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ko'zlangan va kutilmaganda natijalar salmog'ini oshirdi.

Tadbirkor Shahnoza Karimova 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Davlatimiz rahbari qo'lidan yuksak mukofotni qabul qilgani ishbilarmonni nafaqat ruhlantirdi, balki tadbirkor ayol zimmasiga yanayam ko'proq mas'uliyat yukladi.

— Inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi kerak. Har bir boshlagan kichik harakat ham mehnat bilan katta muvaffaqiyatga yetaklaydi. Bu haqiqatga o'z hayotimda amin bo'ldim. Prezidentimiz “qahramon qizim” deganda, o'zimda yanada kuchli ishonchini his qildim. Ayol zoti shunchalik qadrlanadigan vatanda yashayotganimdan juda ham faxrlandim. O'z oldimga yangi maqsadlar qo'ydim va kelajakda yana 500 ta yangi ish o'rimi yaratmoqchiman, — deydi Shahnoza Karimova.

Albatta, baxt oddiylik, kamtarlik va saxiylikda. Inson hayoti to'kisligi mablag'i miqdori bilan emas, undan minnatdor kishilar shukronasi bilan belgilanadi. Bugungi kunda “Baraka Non Navoiy” korxonasi savdo do'konlari yonidan hech bir inson to'xtamay o'tib keta olmaydi. Bilishadiki, bu yerda mijozlarni tabassum bilan qarshi oladigan, eng yaxshi, sifatlil mahsulotlarni taklif etadigan xodimlar va ulami har tomonlana qo'llab-quvvatlashga tayyor, tarbiyasi, faoliyati bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan halol tadbirkor bor.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Akademik Shafolat NAMOZOV:

“FAN RIVOJLANISHI UCHTA OMILGA BOG‘LIQ...”

Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida ilg‘or kimyo texnologiyalari, yangi avlod o‘g‘it va biotexnologiyalari, atmosferadagi karbonat angidrid gazini o‘zlashtirish orqali issiqxona effektini kamaytirishga yo‘naltirilgan agro va biotexnologiyalarga har qachongidan ko‘ra ko‘proq ehtiyoj sezilmog‘da. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligiga oid genomika va bioinformatika, proteomika, fudomiks, biotibbiyot va farmbiotexnologiya kabi yangi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar qilish olimlar oldida turgan muhim vazifadir.



O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti professori, akademik, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator Shafolat NAMOZOV bilan suhbatimiz shu haqda bo‘ldi.

— Olim, ziyoli fitratida hamisha yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissi ufurib turadi. Har bir kashfiyot, har bir yangilik ortida ana shu ezgu maqsad mujassam topgan. Aytinch, noorganik kimyo sohasidagi yetuk olim sifatida ilm-fandagi izlanishlar, kashfiyotlar bugun mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatiga qanchalik hissa ko‘shyapti?

— O‘tgan davrga nazar tashlar ekanman, umrim behuda o‘tmaning ko‘nglimga xotirjamlik inadi. Kimyo faniga bolaligidan qiziqqanman. Toshkent politexnika institutida noorganik moddalar texnologiyasi yo‘nalishida tahsil oldim. Noorganik kimyo institutida aspiranturada o‘qiddim. Ilmiy rahbarim akademik Malik Nabyev juda salohiyatli, kuchli olim edi. 1988-yilda doktorlik dissertatsiyamni yoqladim. Lekin ilmiy-texnik ishlanmalarni sobiq sho‘ro davrida amaliyotga joriy qilish o‘ta qiyin jarayon edi.

Bizda fosforli o‘g‘itlar juda katta muammo. Paxta yoki bug‘doyning rivojlanishi uchun tuproqda ozuqa elementlari juda muhim. Ba‘zi olimlar, mutaxassislar fikricha, urug‘ navi yaxshi bo‘lsa, yuqori hosilga kafolat bo‘la oladi. Lekin yaxshi, mo‘l va sifatli hosil yuzdan oshiq omilga bog‘liqligi dunyo qishloq xo‘jaligi amaliyotida isbotlangan. Birinchi o‘rinda, albatta, nav yotadi. Keyin tuproq unumdorligi, suv, ob-havo, mineral o‘g‘itlar, o‘simlik zararkunandalariga qarshi kurashish vositalari bor. A’gar nav ota bo‘lsa, ona — tuproq. Tuproq sog‘lom bo‘lishi kerak, unga ozuqa moddalar berib turilishi shart, u shuni talab qiladi. Tuproqda hayot mavjud. Ozuqa moddalar ko‘zga ko‘rinmaydigan mikroorganizmlar yordamida o‘simlik ildizlariga yetkazib beriladi.

Tuproq unumdorligi uning tarkibidagi organik moddalar, ya’ni gumus miqdori bilan aniqlanadi. Sug‘oriladigan yerlarimizda gumus miqdori Rossiya, Ukraina, Belarus va Yevropa davlatlarining qora tuproqlaridagiga nisbatan 6-7 barobar kam. Tuproqdagi gumus miqdorini ko‘paytirishning asosiy usullaridan

бири organik va organomineral o‘g‘itlarni doimiy ravishda qo‘llashdir. Har yili sof holatda tuproqdan 300 ming tonnadan oshiq azot, 150 ming tonna fosfor va 270 ming tonnadan ko‘proq kaliy ozuqa moddalari hosil bilan birga chiqib ketadi. Paxta, bug‘doy va boshqa ekinlar hosilini oshirishda navning yaxshi bo‘lishi bilan bir qatorda organik, organomineral, mineral o‘g‘itlar me’yorda berilishi, zararkunandalarga qarshi o‘z vaqtida chora-tadbirlar qo‘llash, agrotexnika qoidalariga rioya qilish, vaqtida sug‘orish kerak bo‘ladi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish korxonalar uchun asosiy xomashyo bo‘lgan fosforitni Qozog‘istondan valyuta hisobiga sotib olardik. Bu esa o‘g‘it tannarxi keskin oshishiga olib kelardi. Mazkur muammoni hal qilish uchun import fosforit o‘rniga mahalliy Qizilqum fosforitlarini ishlatishga qaror qilindi. Yaponiyaning “Mitsui” korporatsiyasi “Samarqandkimyo” OAJda sulfat kislotasi sexini qurish va shu kislotasi asosida oddiy superfosfat ishlab chiqarishni taklif qilgandi. Ishlab chiqarishning umumiy qiymati 80 million AQSH dollarini tashkil qilardi. Institutimiz taklif qilgan nitrokalsiy fosfat o‘g‘iti (NKFO) ishlab chiqarish texnologiyasi boyitilmagan arzon Qizilqum fosforitlarini past me’yorda nitrat kislotasi bilan qayta ishlashga asoslangan bo‘lib, jarayonda maksimal darajada korxonada ishlab turgan uskunalaridan foydalanishga mo‘ljallangan edi.

Ishlab chiqarishning qiymati Yaponiyaning “Mitsui” korporatsiyasi tomonidan taklif etilgan oddiy superfosfatga qaraganda bir necha barobar arzon edi. 2005-yilning 25-mayida yangi texnologiya sinovdan o‘tkazildi, nitrokalsiy fosfat o‘g‘iti (NKFO)ning tajriba partiyasi ishlab chiqarildi. Laboratoriyada shisha reaktorida qilingan tajribadan sanoat miqyosida ishlab chiqarish darajasiga o‘tish bizdan va korxonada mutaxassislaridan katta

tajriba va bilim talab qilardi. Texnologiyani joriy qilishda qator qiyinchiliklarga duch keldik. Korxonada bosh muhandisi Ro‘zmat Rajabov bilan bir necha oy korxonada tunganamiz. Texnologiya yildan yilga takomillashib bordi. O‘tgan 15 yil ichida 281 milliard so‘mlik 635 ming tonna mahsulot ishlab chiqarildi. Shundan 3 million dollarlik mahsulot chetga eksport qilindi.

Olimlik “Ammofos” OAJ mutaxassislari hamkorligida boyitilgan Qizilqum fosforit konsentratidan murakkab ammofos o‘g‘iti olishning samarali texnologiyasini yaratdik va amaliyotga joriy qilindi. Shuningdek, yangi turdagi kompleks ammoniy sulfatofosfat, superfos o‘g‘itlari olish texnologiyalari yaratildi va ushbu korxonada qo‘llanila boshladi.

Hozirga qadar 780 milliard so‘mlik 250 ming tonna ammoniy sulfatofosfat va 2 million tonnadan oshiq superfos o‘g‘iti ishlab chiqarildi. 300 ming tonna superfos va 90 ming tonna ammoniy sulfatofosfat 45 million dollarga eksport qilindi.

Ammiakli selitra (AS) o‘simliklarga tez ta’sir qiluvchi azotli o‘g‘itlar turkumiga kiradi. Dunyo bo‘yicha bir yilda 43 million tonnadan ko‘proq AS ishlab chiqariladi. Ushbu o‘g‘itning 2 ta kamchiligi bor. Birinchisi, uning yopishqoqlik xususiyati. Uni bartaraf qilish uchun amaliyotda magnezit, brusit moddalarini ishlatiladi. Ikkinchisi esa jiddiyroq bo‘lib, ishlab chiqarishda, omborlarda saqlash, tashish jarayonlarida portlash xususiyatidir. Ko‘pgina mamlakatlarda shu muhim hodisalar sodir bo‘lgan. O‘g‘itlar texnologiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot qilayotgan olimlarga xavfsiz AS texnologiyasi ishlab chiqarish vazifasi yuklatildi. Ko‘pgina institutlar, qurular bu borada yangi texnologiyalarni ishlab chiqardi. Tanlovda biz g‘olib chiqdik. Dunyo amaliyotida ilk bor AS suyuqligi va Qizilqum fosforit qo‘shimchasi asosida yopishqoqlik xususiyati bo‘lmagan, termik barqaror (xavfsiz) azotofosforli o‘g‘it (AFO) texnologiyasining ilmiy asoslari yaratildi va 2010-yilda “Navoiyazot” AJda joriy etildi. Hozirga qadar 250 milliard so‘mlik 610 ming tonna AFO ishlab chiqarildi.

20 million AQSH dollarlik mahsulot eksport qilindi. Shunga o‘xshash ohakli AS texnologiyasi ushbu aksiyadorlik jamiyatida joriy qilinib, 35 milliard so‘mlik 56 ming tonna mahsulot ishlab chiqarildi. Nordon qora tuproqlarda ohakli ASning samarasi yuqori bo‘ladi. Shu kunga qadar institutimiz fosforli o‘g‘itlar laboratoriyasi olimlari tomonidan joriy etilgan texnologiyalar bo‘yicha 2 trillion 300 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shundan 65 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Qanchalik muvaffaqiyatga erishgan bo‘lmaylik, ayniqsa, oxirgi yillarda fan va ishlab chiqarish bilan integratsiya oqsolanib qolganini inkor eta olmaymiz. Qachonki, Fanlar akademiyasi, oliy o‘quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalarini bilan integratsiya bo‘lsa, shunda yangi ishlanma va texnologiyalar samarasi ko‘zga tashlanadi. Biz bu borada o‘z takliflarimizni beryapimiz. Fan yutuqlari iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shishi kerak. Chunki bugungi davr oldimizga ushbu talabni qo‘shyapti.

Ishlab chiqarish bilan fan integratsiyasi yaxshilansa, mukammal tizim yaratilsa, o‘ylaymanki, ish joyidan siljib, ancha-

muncha yangi texnologiyalar amaliyotga joriy qilinadi. Dunyo amaliyotida iqtisodiyotning rivojlanishida fanning ulushi 60-65 foizni tashkil qilishi isbotlangan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari oliy o‘quv yurtlari, yirik ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda yangi samarali texnologiyalar va ixtirolarni yaratishi kerak. Bu borada korxonada markaziy laboratoriyasida ilmiy tadqiqot ishlari qilinishi maqsadga muvofiq. Qobiliyatli yosh mutaxassis va muhandislar falsafa doktori (PhD) va doktorlik (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarni himoya qilishi samarasini beradi deb o‘ylayman.

— Yurtimiz aholisi 37 milliondan oshdi, 10-15 yildan keyin 40-50 millionga yetishi



kutilmoqda. Sug‘oriladigan yerlarimiz chegaralangan, suv yetishmasligi dolzarb masala. Aytinch, kelgusida shuncha aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash vazifasi qanday yechiladi?

— Sug‘oriladigan yerlarimiz 3,75 million gektarni tashkil qiladi, uni ko‘paytirishning imkonlari bor, ammo suv yetishmaydi. Bundan tashqari, sho‘rlangan yer maydoni yil sayin kengayib bormoqda. Bunday holatda aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash muammosini, fikrimcha, quyidagicha hal qilish mumkin.

Birinchi, seleksionlarimiz yuqori hosil beradigan nav yaratishi, tuproq unumdorligi organik o‘g‘itlar hisobiga oshirilishi, mineral o‘g‘itlarning samarasi hech bo‘lmaganda 25-30 foiz oshirilishi kerak bo‘ladi. Agar tuproqda gumus miqdori ko‘p bo‘lsa, o‘g‘itlar samarasi 50 foizga qadar oshishi isbotlangan. Bu borada stimulyatorlar va mikroelementlar o‘g‘itlar bilan qo‘shib berilsa, natija yanada yaxshi bo‘ladi.

Ikkinchidan, sho‘rlangan yerlarda paxta, bug‘doy va poliz ekinlarining sho‘rga chidamliligini oshirishning yagona usullaridan biri kalsiy selitrasini keng miqyosda qo‘llashdir. Suvda eriydigan kalsiy elementi toksik tuzlarning salbiy ta’sirini 3-4 barobar kamaytiradi. Bundan tashqari, kalsiy nitriti o‘ta gigroskopik modda bo‘lgani sababli havodan bahor va yoz mavsumida namni o‘ziga tortib



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



oladi, o‘simlik ildizi muayyan darajada suv bilan ta’minlanib turiladi. Hosildorlik paxtada gektariga

5-6 sentner, bug‘doyda esa 7-8 sentner oshadi. Kalsiy nitriti o‘zimizda ishlab chiqarilmaydi, bizga yuqori narxda chetdan keltiriladi. O‘zbekistonda ushbu o‘g‘it mahalliy

zalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 6 baravar, 2030-yilgacha esa 10 baravar oshirilishi qayd etilgan. Bunday e’tibor kun kelib, o‘z samarasini beradi.

Fanning rivojlanishi 3 ta omilga bog‘liq... Birinchidan, yosh ilmiy kadrlarga — ilmiy xodim va doktorantlarga ilmiy tadqiqot faoliyatini yuqori darajada olib borish uchun hamma sharoitlar yaratib berilishi zarur. Aksariyat holatda ularning ko‘p vaqti kimyoviy reagentlar, tajriba uchun zarur vositalarni topishga sarf bo‘ladi.

Ikkinchidan, oliy o‘quv yurtlarida ilimga qiziqqan iqtidorli yoshlar alohida maxsus reja asosida o‘qitilishi kerak. Ular o‘zlarini qiziqqan fan sohasi bo‘yicha tayanch doktoranturaga qabul qilinishi shart.

Uchinchidan, har bir tadqiqotchi ilmiy ishni bajarishda zamonaviy uskunalaridan foydalanishi va zamonaviy ko‘nikmaga ega bo‘lishi talab etiladi. Oxirgi 3-yil ichida institutlar zamonaviy uskunalar bilan ta’minlanaypti. Ammo ushbu uskunalar yetarlicha malakaga ega bo‘lmagan xodimlar ishlaypti, ular uskunalar olgan ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilib berish qobiliyatiga ega emas. Uskunalarni samarali ishlatish biladigan mutaxassislar kerak. Aksariyat uskunalar haftasiga 1-2 kun ishlaydi. Besh yildan keyin uskunaga ma’naviy eskiradi, uning o‘rniga yangisini sotib olishga to‘g‘ri keladi. Bu muammoning ham yechimi bor. Dunyo amaliyotida 9 ta yirik ilmiy markaz bor. Uning 60 foizi AQSHda. Bu ilmiy markazlarda yuqori saviyali mutaxassislar o‘ta noyob uskunalarda to‘xtovsiz izlanish olib boradi. Fanlar akademiyasi tasarrufida shunday markaz ochildish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar sifatini oshirish maqsadida tayanch doktorant va doktorantlarning ilmiy rahbar va maslahatchilari 2 nafar bo‘lishi maqsadga muvofiq. Birinchisi — mahalliy mutaxassis, ikkinchisi — rivojlangan mamlakatlarning yetakchi olimi bo‘lishi kerak. Bu ilmiy izlanishlar natijasi haqida chop etilayotgan maqolalarning sifatini ko‘tarish va salohiyatli ilmiy kadrlarni tayyorlashga olib keladi.

Akademiyasi institutlarida ham fundamental, ham amaliy tadqiqot ishlari olib borilishi shart. Ular bir-biridan ajratilmaydi kerak. Bunga yaqqol dalilni Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Fanlar akademiyasining ish faoliyatida ham ko‘rish mumkin.

Ishlab chiqilgan yangi samarali texnologiyalarni amaliyotga joriy qilishda hali ham to‘siqlar va qiyinchiliklar bor. Ilm-fan va ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasida o‘zaro mustahkam integratsiyani yaratishni davming o‘zi taqozo etayotir. Bu mamlakatimiz ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishi, shubhasiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

O‘ZBEKISTON – FRANSIYA TA’LIM HAMKORLIGI: KELAJAK SARI ISHONCHLI QADAM

Xalqaro aloqalar

O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi strategik sheriklik izchil mustahkamlanib, ta’lim va ilm-fan sohalari yangi bosqichga ko‘tarilmog‘da. Prezidentimizning shu yil 11-13-mart kunlari Fransiya davlat tashrifida ana shu yo‘nalishda ham muhim qadamlar qo‘yildi. Tashrif doirasida strategik sheriklik munosabatlarni o‘rnatish bo‘yicha qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu kelishuv ta’lim tizimlarini zamonaviylashtirish, akademik almashinuvni rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish borasida katta imkoniyatlar ochishi kutilmog‘da.

Mamlakatimiz bilan strategik hamkorlik yuksak qadrlanayotganining isboti sifatida Prezidentimiz Fransiyaning oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlandi. Bu orden O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotgani, mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar, tashqi siyosatdagi insonparvarlikka yo‘g‘irilgan faol sa’y-harakatlarning yuksak e’tirofi hamdir.

Shuningdek, Fransiya Prezidentining rasmiy qabul marosimida o‘zbek tilida

so‘zlagani xalqimizga alohida g‘urur bag‘ishladi. Uning “Yashasin O‘zbekiston, yashasin Fransiya!” degan tilagi ikki xalq o‘rtasidagi hurmat va do‘stlik ramzi sifatida tarixga muhrlandi.

Ushbu tashrif davomida O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibida Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tilar instituti vakillari ham Parijda o‘tkazilgan “Ilm-fan va ta’lim: O‘zbekiston — Fransiya ko‘prigi” xalqaro konferensiyasida



qatnashdi. Tadbirda oliy ta’lim sohasida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish, fransuz tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish va akademik almashinuv dasturlarini

kengaytirish bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishildi. Zero, bugun Fransiya dunyodagi eng ilg‘or ta’lim tizimlaridan biriga egalik qiladi.



Institutimiz uchun eng ahamiyatli natijalardan biri — Fransiyaning yetakchi ta’lim muassasalari bilan imzolangan kelishuvlar bo‘ladi. Mazkur kelishuvlar asosida institutimiz uchun qator yirik loyihalar belgilab olindi. Jumladan, shu yil avgustda institutimizning 8 professor-o‘qituvchisi Frankofoniya xalqaro tashkiloti bazasida malaka oshiradi. 2025/2026-o‘quv yilida Sorbonne Paris Nord (Parij Shimoliy Sorbonna) universiteti bilan hamkorlikda 50 talaba uchun onlayn ma’ruzalar tashkil etiladi. Erasmus+ dasturining Capacity Building (salohiyatni oshirish) yo‘nalishi doirasida fransuz tilini o‘qitish bo‘yicha innovatsion loyihalar amalga oshiriladi.

Fransiya bilan hamkorlik institutimizning xorijiy tillarni o‘qitish tizimini tubdan takomillashtirish, talabalarning akademik almashinuv dasturlarida faol qatnashishi va ilmiy tadqiqotlar sohasida xalqaro

integratsiyani kengaytirishga xizmat qiladi. Bugun institutimizda 69 talaba fransuz tilini asosiy mutaxassislik sifatida, 245 yigit-qiz esa ikkinchi til sifatida o‘rganmog‘da.

Oliy ta’lim muassasamiz fransuz tilini o‘qitish bo‘yicha Frankofoniya markazini tashkil etish tashabbusini ilgari surmog‘da. Bu markaz orqali talabalar va professor-o‘qituvchilar fransuz tilini chuqur o‘rganish, xalqaro ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va akademik almashinuv dasturlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugun institutimiz buyuk ma’rifatparvar va tilshunos olim Is’hoqxon Ibrat ma’naviy merosiga sodiq qolgan holda xalqaro hamkorlik, ilmiy tadqiqot va ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishida jahon standartlariga mos faoliyat yuritishga intilib kelmog‘da. Talabalarimiz xalqaro tanlovlarda faol qatnashib, xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish orqali O‘zbekistonda xalqaro ilmiy maydonda tanitishga hissa qo‘shmog‘da. Xususan, 2023-yilda talabalarimiz Fransiya elchixonasi tomonidan o‘tkazilgan Journé de la Francophonie festivalida “Ibrat” nomli teatr ko‘rinishi bilan qatnashib, yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Prezidentimizning ushbu tarixiy tashrifi va ta’lim sohasiga oid kelishuvlar kelgusi avlod uchun yangi imkoniyatlar ochib, xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o‘rin egallashimizga xizmat qiladi.

Rivojiddin KARIMOV, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent



www.yuz.uz



yuz.uz



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi

Dunyoda turmoq uchun
DUNYOVIY FAN VA ILM LOZIMYOXUD MA'RIFATPARVAR BOBOMIZNING
IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARIGA BIR NAZARIsmoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Yangi O'zbekiston g'oyasining asosiy maqsadlaridan biri kelajak poydevori bo'lgan yoshlarni nafaqat huquqiy, siyosiy va iqtisodiy, balki ma'naviy-madaniy, ijtimoiy va axloqiy yetuk, mustaqil fikrlovchi barkamol avlod etib voyaga yetkazishdir. Jahonda kechayotgan shiddatli geosiyosiy kurashlar, dunyoni qaytadan bo'lib olish, yoshlar qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan kurashlar, ziddiyatlar shuni taqozo etadi.

davrining diniy ulamosi, ya'ni muftiy, ma'rifatparvar adibi edi.

1875-yili Samarqandda tug'ilgan, Yassaviy avlodidan bo'lgan Behbudiy 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, muftiy darajasiga ko'tariladi. Behbudiy haj safarida bo'lgan chog'ida Arabiston, Misr, Turkiyani kechib chiqqan. Sayohati davomida Abdulqodir Shakuriy bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib, u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi.

"Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi"), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muntahabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitob ul-atfol" ("Bolalar xati"), "Amaliyoti islom", "Tarixi islom" kabi kitoblar chop ettiradi. Shuning uchun ham maktablar islohoti va mamlakat taraqqiyoti masalasi uning chiqishlarida uyg'un olib boriladi. "Boshqa millatlarga qaralsa, ko'rulurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki "dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan behbra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur".

Jadid maktablari mohiyatini Behbudiy qisqacha va lo'nda qilib bunday talqin etadi: "... Zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlar va fununi zamoniyan darbar (o'zida saqlagan, tashuvchi) qilgan odamlarni talab qilur". Binobarin ana shunday odamlarni o'qitib, tarbiyalab yetishtirish jadid maktablarining maqsadi bo'lgan. Lekin "johilona taassublik"ka berilgan, qadimchilar hisoblangan kishilar bu maqsad mohiyatini tushummas, jiddiy qarshiliklar qilar edi. Ularga qarshi Behbudiy bir og'iz so'z bilan "Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas", deya javob beradi.

Behbudiyning Turkiya, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya, Yunoniston, Bolgariya, Avstriya, Germaniya, Ukraina, Saudiya Arabistoni, Suriya va boshqa qator yurtlarda bo'lib, ta'lim haqida ma'lumotlar olgan maktablar islohoti borasidagi qarashlarini takomillashtirdi. Ta'limda ilg'or mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy sohalarida ham peshqadamligiga havas bilan

qaradi. Turkiston ham ana shunday davlatlar qatorida bo'lishini orzu qildi.

1914-yilda "Oyina" jurnalida bosilgan "Muhtaram yoshlarga murojaat"ida nadomat bilan bunday fikrlarni yozadi: "Yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini(ng) ibtidoiy tarbiyasiga va maktablarining har jihatdan intizomi va akmoliga ahmiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotga molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar". Uning fikricha, bu hissiyotni maktablar tarbiyalashi kerak. Jadidlar ustozlari maktablarni "taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi" deb biladi.

U kelajak davrni "tamaddun asri" deb ataydi. Bunday davrda zamonaviy ilmlarsiz, quruq, chirik tafakkur bilan yashab bo'lmaydi. Shuning uchun u jadid maktablarida ko'proq zamonaviy, dunyoviy fanlarni o'zlashtirishga diqqat qaratadi. Dunyoviy fanlarni esa jahonning taraqqiy qilgan xalqlari ilm-fani orqali o'rganish ko'zda tutiladi.



"Oyina" jurnalining birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan, fransuz) tilini bilish shart, deydi. Ulug' ma'rifatparvar yoshlarni zamon bilan hamnafas bo'lish, zamonaviy ilmlarni o'rganishga shu qadar ko'p tashviq qiladiki, hatto bugun ham bu fikrlar o'z ahmiyatini yo'qotmagan.



“Jadidlar peshvosi “Padarkush” nomli birinchi o'zbek dramasi ni yozish va sahnalashtirish orqali milliy teatrning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. “Padarkush” o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini “milliy fojia” deb atagan. Asar Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Behbudiyning zamonaviy ilmlarga da'vati hamon dolzarb bo'lgani kabi ularni egallashda monelik qiladigan illatlardan ham xalos bo'lmadi, balki ular ortmoqda. Mutafakkirning qarashlari bugungi kunimizga ham mos deb o'ylanmay. Yoshlarimizning ilm, zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekti

Jadidlar peshvosi "Padarkush" nomli birinchi o'zbek dramasi ni yozish va sahnalashtirish orqali milliy teatrning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. "Padarkush" o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini "milliy fojia" deb atagan. Asar Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasi shuning ta'sirida yozgani ma'lum. "Padarkush" ham janr, ham mazmuniga ko'ra, yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtirildi. Behbudiy teatrni tushunmay, uni din yo'li bilan man qilishga urinishi kimsalarga "Padarkush"ni misol qilib: "Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko'rganlari gunah bo'lgon joyini ko'rsatsalar", deydi.

Behbudiy matbuot ravnaqiga ham katta hissa qo'shdi. "Samarqand" gazetasini chiqaradi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolalanavus sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalari soni 300 taga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, "xayoliy", "bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlilik" deb yozgan edi ("Xayrul umuri avsatubo" — "Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir", "Xurshid" gazetasi, 1906, 6-son).

1917-yilning oxiri — 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi — Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda o'lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Uning fikrlari ummallashtirib xulosa qilinadigan bo'lsa, Turkiston xalqining har bir a'zosi o'qimishli, milliy qadriyatlar jonkuyar, o'zligini anglagan, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlaridan bahramand, ular istifodasiga qodir, milliy taraqqiyotga monelik qiluvchi illatlardan xalos bo'lgan va ularga qarshi kurashuvchi shaxslardan iborat bir jamiyat, ya'ni yuksak madaniyatli va ma'naviyati jamiyat orzu qilingan.

"Oh! Biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamoniy ila osmonlarga uchar, biz hanuz bir-birimizni takfir (kofirga chiqarish) va tal'in (la'natlash) ila vaqt o'tkurmiz", deydi u. Ko'zlangandek jamiyat a'zolari bo'lishi, jahonda munosib o'rin egallashi uchun millatdoshlarining ikki emas, to'rt til bilishi lozimligi kun tartibiga



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhir: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy